

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**AVYASOVA IRINA RAFAILOVNA**

**INGLIZ HARBIY ABBREVIATURALARNING  
RUS VA O'ZBEK TILLARIDA BERILISH TAMOYILLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)  
in Philology**

**Avyasova Irina Rafailovna**

Ingлиз harbiy abbreviaturalarning rus va o‘zbek tillarida berilish tamoyillari ..... 3

**Авясова Ирина Рафаиловна**

Способы передачи английских военных аббревиатур на русском и  
узбекском языках..... 21

**Avyasova Irina Rafailovna**

The ways of transferring English military abbreviations into Russian and  
Uzbek languages..... 43

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 48

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**AVYASOVA IRINA RAFAILOVNA**

**INGLIZ HARBIY ABBREVIATURALARNING  
RUS VA O'ZBEK TILLARIDA BERILISH TAMOYILLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida**  
**B2022.3.PhD/Fil2749 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.jdpu.uz](http://www.jdpu.uz)) va «ZiyoNET» Axborot ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamatov Abdug'afur Eshonqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Sa'dullayeva Nilufar Azimovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “17” 05 soyat 12 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax, Sharof Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (+99872) 226-13-57 (+99872) 226-21-73; faks: (99872) 226-46-56; e-mail: jdpu.info@umail.uz Jizzax davlat pedagogika universiteti bosh bino, 2-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (24 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax, Sharof Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (+99872) 226-13-57 (+99872) 226-21-73; faks: (99872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “02” 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil “1” 02 dagi 05 - raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**U.A.Jumanazarov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir  
martalik Ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor

  
**F.E.Ibragimova,**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir  
martalik Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filol.f.n., dotsent

  
**U.Qosimov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir  
martalik Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor



## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Jahon tilshunosligida turli tizimli tillar terminlarining lisoniy tabiatи, etimologiyasi, yasalish usullari, leksik-semantik xususiyatlari, paradigmatic munosabatlarini aniqlashtirish zamonaviy tamoyillarda talqin qilinmoqda. Til birliklarining lingvistik mohiyati, termin va uning lisoniy maqomi masalalari, professional terminlar va abbreviaturalarning leksik-semantik va strukturaviy tarkibi hamda turli tizimli tillariga tarjima qilish masalalarini yoritish yangicha yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Professional terminlarning morfologik, sintaktik, semantik belgilari hamda derivatsiyasini aniqlash, shuningdek, ingliz harbiy abbreviaturalarini rus va o‘zbek tillariga tarjima qilish muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda abbreviatura hodisasini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turli tizimli tillarga murakkab denotatlarning kirib kelishi, ularni ifodalash uchun so‘z birikmalari yoki murakkab so‘zlardan foydalanishga ehtiyoj sezilmoqda. Abbreviaturalar paydo bo‘lishining sabablarini tahlil qilish, ularning sotsiolingvistik jihatlari, tasniflash, tilning so‘z yaratuv tizimidagi o‘rnini, abbreviatura jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari va bu turdagи leksik birlklarni tarjima qilish borasidagi ilmiy izlanishlar dolzarb ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘zbek tili o‘zining yangi sifat bosqichini boshdan kechirmoqda. O‘zbek tilshunosligida terminlar lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi konsepsiylar asosida talqin etilmoqda. “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning soqligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash”<sup>1</sup> borasida turli tizimli tillarning qiyosiy-tipologik, leksik-semantik, derivatsion hamda harbiy sohadagi terminlar va abbreviaturalarining o‘xshash va farqli xususiyatlarini hamda ularning tarjimalarini o‘rganish, soha lug‘atlarini yaratish ayni kunda tilshunoslikning zarur masalalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

### **Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor**

<sup>1</sup> Prezident Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi”. 2019.21.10.prezident.uz/uz/uz.

**yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Professional terminlar, xususan, harbiy terminlarning leksik-semantik, grammaatik va funksional-strukturaviy jihatlari, zamonaviy abbreviaturalarning xususiyatlari ko‘plab tilshunoslarning maqolalari hamda alohida tadqiqotlarida o‘rganilgan. J.Algeo, H.Marchand, K.Sunden, W.Hofrichter<sup>2</sup> kabi xoriliy tilshunoslar, I.V.Arnold, V.V.Borisov, L.B.Vasilchenko, E.P.Gorshunov, A.N.Eldishev, L.F.Kaxovskaya, Yu.G.Kocharyan, R.I.Mogilevskiy, V.I.Solopov, V.N.Shevchuk va boshqa ko‘plab rus tilshunoslarning ishlarida tadqiq qilingan<sup>3</sup>. Professor R.I.Mogilevskiyning ilmiy tadqiqotlarida rus va slavyan abbreviaturalarining shakllanishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq tasniflar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular nafaqat rus tili, balki o‘zbek tilida ham abbreviaturalarning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilshunoslida harbiy leksikaning o‘ziga xos xususiyatlari, harbiy terminlarning shakllanish usullari va ularning semantik-funksional jihatlari Alikulov Z.A., Dadaev H., Dolimov Sh.Z., Yodgorov H.E., Kurganov A.M., Sharipova M.K., Ergasheva F.I., Erkinov E.S.<sup>4</sup> kabi tilshunoslar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan.

Shu bilan birga, ingliz abbreviaturasi va ularning o‘zbek tilidagi parallel

<sup>2</sup> Algeo, John, 1975. “The Acronym and its Congeners”, in Makkai, A. and Makkai V., (Eds.), 1975. The First LACUS Forum 1974. Columbia, S.C.: Hornbeam Press, - 217-234 p.; Marchand H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation. Munchen: Verlag C.H. Beck, Second edition 1969. – 545 p.; Sunden, K. Contribution to the Study of English. Words in Modern English / K. Sunden. – Uppsala, 1904. – 233 p.; Hofrichter W. Zu Problemen der Abkürzung in der deutschen Gegen-wartssprache. B., 1977. – 176 s.

<sup>3</sup> Арнольд И.В. Образование акронимов в современном английском языке пример самонастройки лексической системы // Взаимодействие языковых структур в системе: (Вопросы структуры английского языка в синхронии и диахронии). Л.: ЛГУ, 1980. Вып. 4. - 197-202с.; Борисов В.В. Аббревиация и акронимия. Военные и научно-технические сокращения в иностранных языках. М.: Воениздат, 1972. – 320 с.; Васильченко Л.В. Аббревиатуры в словообразовательной структуре русского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. Алма-Ата, 1986. – 19 с.; Горшунов Ю.В. Структурно-семантические особенности сложносокращенных слов современного английского языка: Автореф. канд. дис. М., 1984. – 15-16с.; Елдышев А.Н. Строение и мотивированность сокращённых слов (к проблеме взаимодействия формально-содержательных признаков в слове): Автореф. дис. канд. филол. наук. -М., 1984. – 96 с.; Каховская Л.Ф. Аббревиатура как способ словообразования: Автореф. канд. дис. Минск, 1980. – 24 с.; Кочарян Ю.Г. Аббревиация в английской военной лексике. Канд. дис. – М.: – 2007. – 256с.; Могилевский Р.И. Аббревиация как лингвистическое явление: Автореф. дис. канд. филол. наук. Тбилиси, 1966. – 20, 32с.; Соловьев В.И. Образование и лексикализация аббревиатур в устной военной коммуникации: (На материале русского и английского языков): Канд. дис. М., 1989. – 283 с.; Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке: Аффиксальное словоизделие. М.: Воениздат, 1983. – 231с.

<sup>4</sup> Аликулов З.А. Аббревиатуры в узбекском языке: Автореф. ... дис. Канд.филол. наук. – Ташкент, 1976. – 23 с.; Дадабаев Х. А. Военная лексике в староузбекском языке: Дис...канд.филол.наук. –Т.: 1981. – 176 с.; Дадабаев Х. А. Тарихий ҳарбий терминлар лугати. – Т.: Университет, 2003. – 72 б.; Долимов Ш.З. Ҳарбий атамаларнинг қисқача изоҳли лугати. Т., 2007. – 394 б.; Ёдгоров Ҳ.Э. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқики.Филол.фналар номзоди...дис. –Т., 1996. – 186 б.; Курганов А.М. Инглизча – ўзбекча ҳарбий атамалар лугати. Т, – 2021. – 156 б.; Шарипова М.К. Образование и функционирование аббревиатур в современном русском и узбекском языках (на материале сми). Канд. дис. – Самарканд, 2023. – 162 с.; Эргашева Ф.И. Способы образования английских военных терминов // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2010. - № 8. – 36-44 с.; Эркинов Э.С. Ҳарбий қасбга оид лисоний бирликларнинг систем – функционал хусусиятлари (инглиз тили материали асосида) автореф.дисс.филол.ф.ф.док-ри (PhD). С., 2020. – 53 б.

shakllari, rus va o‘zbek tillarida abbreviaturalarning shakllanishi va taraqqiyoti hamda ularning tarjimasi masalalari alohida kompleks tadqiqot mavzusi bo‘lmasidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Talabalarni tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni o‘zlashtirishlariga qaratilgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash bo‘yicha kompleks tadqiqotlar” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz tilidagi harbiy terminlar va abbreviaturalarning leksik-semantik, derivatsion, semantik-funksional xususiyatlarini, ularning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimasi hamda berilishi tamoyillarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tilshunoslikda harbiy terminlogiya qisqartmalarini tavsiflashning nazariy asoslarini, bunda til tizimidagi qisqartmalar, qisqartmalar va reduksiya, qisqartmalar turlari va ularning tasnifi, qisqartmalarning fonetik-grammatik xususiyatlarini va ularning til lug‘at tarkibidagi roli va o‘rnini aniqlash;

ingliz, rus va o‘zbek qisqartmalarining struktural-semantik xususiyatlarini, xususan, rus va o‘zbek tillaridagi bir bo‘g‘inli, murakkab bo‘g‘inli, bosh harfli qisqartmalarning tuzilishi va semantikasi masalalarini, ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi qisqartmalarning qiyosiy tahlilni, qo‘llanilgan metodologiya asosida ushbu tillardagi qisqartmalarning struktural-semantik xususiyatlarini ochib berish;

inglizcha harbiy qisqartmalarining rus va o‘zbek tillari terminologik tizimida qo‘llanilishini, ingliz, rus va o‘zbek tillarida abbreviaturalarning shakllanishi va faoliyat yuritishi, harbiy qisqartmalarni rasshifirovka qilishning asosiy usullari hamda ingliz harbiy qisqartmalarini rus va o‘zbek tillarida tarjima qilish masalalarini yoritish;

tarjima usullariga kontekstual va madaniy xususiyatlarning ta’sirini tahlil qilish, harbiy terminlogiya doirasida qisqartmalarning ma’nosini aniq va tushunarli yetkazishni ta’minlovchi eng samarali yondashuvlarni aniqlash maqsadida turli usullarning samaradorligini taqqoslash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz harbiy terminologik tizimidagi qisqartmalar hamda ularning leksik derivatsiya va leksikallashtirish jarayonlari natijasida so‘z maqomiga ega bo‘lgan ikkilamchi nominatsiya birliklari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz harbiy terminlari va abbreviaturalarning semantik-funksional, strukturaviy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning rus va o‘zbek tillariga tarjimasi masalalari, berilish tamoyillarini tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda chog‘ishtirma qiyosiy-tipologik, funksional-uslubiy, derivatologik, qiyosiy-statistik va kontrastiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

tilshunoslikda termin va uning lisoniy maqomi, professional terminlar va

abbreviaturalarning leksik-semantik va strukturaviy tarkibi, abbreviatsiyaning til tizimidagi o‘rni, fonetik-grammatik, derivatsion xususiyatlari hamda turli tizimli tillarga tarjima masalalari ochib berilgan;

ingliz, rus va o‘zbek harbiy abbreviaturalarning tarjimadagi muqobilini berish *Dr.* = Doctor – “доктор”, “doktor”, *Co.* = colonel – “полковник”, “polkovnik” kabi kontekstual tahlil (rasshifrovka-ma’noni ochish) usuli, abbreviaturalar tarkibidagi *HQ* (Headquarters – штаб) va *CO* (Company – рота), *BN HQ* Battalion Headquarters – “штаб батальона” singari leksik analogiyalarini qo‘llash usullari asosida yuzaga kelishi dalillangan;

ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi dos – dosimetry; lab – laboratory kabi bir bo‘g‘inli qisqartmalar; *radsta* – radio station – “радиостанция”; *navsat* – navigational satellite – “навигационный спутник” kabi murakkab bo‘g‘inli, *HHK*–harbiy-havo kuchlari – Военно-воздушные силы kabi bosh harfli abbreviaturalarining tarkibiy tuzilishi aniqlangan;

ingliz, rus, o‘zbek harbiy terminologiya kontekstining m-metr, mmf ekvivalentli; *WS* = weapon system – “система оружия”, “qurol tizimi *WS-610A*” xorijiy qisqartmani o‘zlashtirish, *NATO* = North Atlantic Treaty Organization, radar = radio detection and ranging – “радиолокатор, радар”, “radiolokator, radar” kabi transliteratsiya, Эс-Эс-Ти = *SST* Supersonic Transport, Эй-Би-Эм = *ABM* Anti-Ballistic Missile (Defense) – “система противоракетной обороны”, “raketaga qarshi mudofaa tizimi” kabi transkripsiya asosida qisqartmalarni yaratish usullari ochib berilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz harbiy terminlarining zamonaviy holati tavsiflanib, professional nutqdagi alohida quyi tizimlarning faollik darajasi aniqlangan;

kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy faoliyatining turli sohalarida lingvistik tayyorgarlik zarurligini tasdiqlash maqsadida ma’ruza kursi tayyorlangan;

ingliz tilini o‘rganishda qisqartmalarni tarjima qilish usullarini rivojlantirish va o‘quv adabiyotlari hamda lug‘atlar yaratish usullarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ingliz harbiy qisqartmalari uch tildagi lug‘ati tuzilib, bu ingliz harbiy qisqartmalarining rus va o‘zbek tillariga tarjima qilish va ishlatilish xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy xulosalarga asoslangan, qog‘oz nusxasi va elektron (mobil) ilova “Ingliz harbiy qisqartmalar lug‘ati (o‘zb-rus)” yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan tadqiqot usullari, asosiy ilmiy-nazariy qoidalar, tahlil qilingan materiallarning katta hajmi, shuningdek, dissertatsiya ishining nazariy qoidalariga muvofiq keluvchi tadqiqot natijalari bilan ta’milanadi. Xulosalar, taxminlar va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilgan va olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘tkazilgan tahlillar natijasida olingan natijalar va xulosalardan foydalanishga asoslanadi, bu esa maxsus leksikaning alohida qatlamlarini, shu jumladan, boshqa tillar materiali asosida ham tizimli-semantik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan izohlanadi.

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Ingliz tili leksikologiyasi”, “Ingliz

tili frazeologiyasi”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanlari bo‘yicha ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, maxsus fanlarni o‘qitishda, terminologik lug‘atlar tuzishda, shuningdek, magistrlik dissertatsiyalarini yozishda o‘quv jarayonida qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz harbiy abbreviaturalarning rus va o‘zbek tillarida berilish tamoyilari tadqiqi davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

tilshunoslikda termin va uning lisoniy maqomi, professional terminlar va abbreviaturalarning leksik-semantic va strukturaviy tarkibi, abbreviatsiyaning til tizimidagi o‘rni, fonetik-grammatik, derivatsion xususiyatlari hamda turli tizimli tillarga tarjima masalalari haqidagi xulosalardan MUZ-2015-0725140051 sonli amaliy loyiha doirasida “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini boyitish uchun ingliz-o‘zbek-rus frazeologik lug‘atini yaratish va joriy etish” foydalanilgan (Jizzax davlat pedagogika universitetining 2024-yil 7-fevraldagi 04-155 son ma’lumotnomasiga asosan). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida yaratilgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishda foydalanilgan;

ingliz, rus va o‘zbek harbiy abbreviaturalarning tarjimadagi muqobilini berish *Dr.* = Doctor – “доктор”, “doktor”, *Co.* = colonel – “полковник”, “polkovnik” kabi kontekstual tahlil (rasshifrovka-ma’noni ochish) usuli, abbreviaturalar tarkibidagi *HQ* (Headquarters – штаб) va *CO* (Company – рота), *BN HQ* Battalion Headquarters – “штаб батальона” singari leksik analogiyalarini qo‘llash usullari asosida yuzaga kelishi to‘g‘risidagi xulosalardan “Classroom language” darsligida foydalanilgan (Guliston davlat universitetining rektorining 2023-yil 30-maydagi 71-sun buyrug‘i asosidagi 71-24-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada ushbu darslikning so‘z yasash asoslari tipologiyasi, qisqartmalarni to‘g‘ri tushunish va tarjima qilish imkonini berishga qaratilgan yangi ma’lumotlar bilan boyitilishga erishilgan;

ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi *dos* – dosimetry; *lab* – laboratory kabi bir bo‘g‘inli qisqartmalar; *radsta* – radio station – “радиостанция”; *navsat* – navigational satellite – “навигационный спутник” kabi murakkab bo‘g‘inli, *HHK*–harbiy-havo kuchlari – Военно-воздушные силы kabi bosh harfli abbreviaturalarning tarkibiy tuzilishiga oid ma’lumotlaridan “Teaching and Learning Strategies” nomli darsligida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sun buyrug‘i asosidagi 194-337-sun guvohnomasi). Natijada darslikning yangi ma’lumotlar, abbreviaturalarning tarkibiy tuzilishiga oid manbalar bilan boyitilgan;

ingliz, rus, o‘zbek harbiy terminologiya kontekstining *m*-metr, *mmf* ekvivalentli; *WS* = weapon system – “система оружия”, “qurol tizimi WS-610A” xorijiy qisqartmani o‘zlashtirish, *NATO* = North Atlantic Treaty Organization, *radar* = radio detection and ranging – “радиолокатор, радар”, “radiolokator, radar” kabi transliteratsiya, Эс-Эс-Ти = *SST* Supersonic Transport, Эй-Би-Эм = *ABM* Anti-Ballistic Missile (Defense) – “система противоракетной обороны”, “raketaga qarshi mudofaa tizimi” kabi transkripsiya asosida qisqartmalarni yaratish usullariga oid xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti

kursantlariga Ingliz tili darslarida foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya institutining 2024-yil 15-yanvardagi 17-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti kursantlarining kasbiy kompetensiyasini va umumiylar bilim darajasini bosqichma-bosqich takomillashtirishga erishildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 19 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 6 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 10 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, har bir bob bo‘yicha xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiylarini hajmi 135 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan oliy o‘quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalar, tadqiqot obyekti va predmeti, ilmiy yangilik, amaliy natijalar va ularning ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyat, natijalarni joriy etish, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning birinchi bobini “**Tilshunoslikda harbiy terminologiya qisqartmalarini tavsiflashning nazariy asoslari**” deb nomlanib, bunda til tizimidagi qisqartmalar, qisqartmalar va reduksiya, qisqartmalar turlari va ularning tasnifi, qisqartmalarning fonetik-grammatik xususiyatlari va ularning til lug‘at tarkibidagi roli va o‘rnini tavsiflangan.

Zamonaviy tilshunoslikda abbrevaturalar (qisqartmalar) axborot uzatishni soddallashtiradi va tezlashtiradi, til resurslarini tejashga yordam beradi hamda ma’lumotlarni siqiq holda ifodalaydi, shu bilan birga uning ma’nosini saqlab qoladi. Bunday qisqartmalar tilda, ayniqsa, harbiy terminologiya kabi maxsus sohalarda muhim rol o‘ynaydi.

Tarixiy jihatdan hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi ingliz tili rivojlanishining ilk bosqichlarida fonologik darajada hind-yevropa fleksiyasini soddallashtirishga moyillik bo‘lgan, bu esa keyinchalik uning so‘z yasalish tizimi va umumiylarini tuzilishiga ta’sir qilgan. Dastlab yozuvda tejamkorlik vositasi sifatida paydo bo‘lgan abbrevaturalar vaqt o‘tishi bilan og‘zaki nutqda keng tarqalgan va keyinchalik ixtisoslashgan terminologiyadan tashqari yozma uslublarga ham o‘tgan.

Qisqartma va reduksiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, biroq tilda turli vazifalarni bajaradi. Qisqartma mavjud so‘zlar asosida yangi leksik birliliklar

yaratishga xizmat qilsa, reduksiya so‘zlarning fonetik tuzilishini qisqartirish yoki soddalashtirishga yo‘naltirilgan. Ularning o‘zaro ta’siri, ayniqsa, axborot samaradorligi va ixchamligi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan harbiy terminologiyada, tilni o‘zgaruvchan aloqa sharoitlariga moslashtirishga yordam beradi.

Til qisqartmalar grafik va leksik kabi ikki asosiy turga bo‘linadi. Grafik qisqartmalar faqat yozma nutqda qo‘llaniladi, tovush shakliga ega bo‘lmaydi va og‘zaki nutqda to‘liq shaklda talaffuz qilinadi. Bunday qisqartmalar so‘zlar yoki iboralarni stenografik yozishning o‘ziga xos usuli hisoblanadi.

Grafik qisqartmalar bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, bitta qisqartma bir nechta bir xil ildizli so‘zlar va ularning shakllarini almashtirishi mumkin, masalan, ingliz tilidagi “loc” (joy, joylashuv, joylashgan, joylashtirish) yoki “prep” (tayyorgarlik, tayyorlash) kabi. Shuningdek, bitta so‘zning yozmada bir nechta grafik qisqartma variantlari bo‘lishi mumkin, masalan, “am”, “amm”, “ammn”, “amn”, “ammo”, “amu” qisqartmalar “ammunition” so‘zi sifatida qo‘llaniladi.

Grafik qisqartmalarda nuqtalar, tirelar, qiya chiziqlar, kursiv va boshqa grafika vositalari keng qo‘llaniladi. Rus tilida qisqartmalarni rasmiy lashtirish usullariga asoslangan grafik qisqartmalarning tasniflari mavjud. Ushbu tasniflar nuqtali qisqartmalar («ε.» – asr), tire bilan qisqartmalar («φ-κα» – fabrika), qiya chiziqli qisqartmalar («n/n» – tartib bo‘yicha), kursiv qisqartmalar («ε.» – gramm) va kombinatsiyalangan qisqartmalar («Жc.-ð.» – temir yo‘l) kabi turlarni o‘z ichiga oladi. Bunday tasniflar boshqa tillarga ham moslashtirilishi mumkin, lekin ularning asosiy vazifasi dekodifikatsiyalash emas, balki qisqartmalarning orfografik tomonini ta’minlashdir.

Leksik qisqartmalar grafik qisqartmalarga nisbatan boshqacha ahamiyatga va vazifaga ega bo‘ladi. Ular til birliklarini to‘liq ifodalaydi, nutqda nafaqat ajralib turadi, balki tilning, tovush shakli va aniq ma’nosi (ma’nosi yoki hissiy tarkibi) kabi muhim xususiyatlariga ega bo‘ladi. Leksik qisqartmalar nutqda qayta ishlatiladi va til birliklariga qo‘yiladigan barcha talablarni qamrab oladi.

Leksik qisqartmalarni tasniflash ularning murakkab tuzilishi, o‘zgaruvchanligi, qisqartmaning turli usullarining o‘zaro ta’sir imkoniyati va qisqartmaning boshqa so‘z yasash usullari bilan o‘zaro ta’siri tufayli murakkab kechadi. Leksik qisqartmalar muayyan tilning leksik-semantik tizimining ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun ham qisqartirilgan birliklarning turlari u yoki bu tilga ko‘ra farqlanishi mumkin.

Xususan, ingliz tilida leksik qisqartmalar *til elementlari tushirilib shakllangan va morfologik transformatsiya orqali hosil qilingan qisqartmalar* kabi ikki asosiy guruhga bo‘linadi: “automatic” (avtomatik to‘pponcha), “battleship” (chiziqli kema) va “solid” (qattiq raketa yoqilg‘isi) kabi qisqartmalar sintaktik qisqartmalar sifatida e’tirof etiladi va morfologik qisqartmalardan farq qiladi.

Morfologik qisqartma esa o‘z navbatida, morfemalar yoki bo‘g‘inlarga mos kelmaydigan so‘z qismlarining mavjudligi bilan ajralib, qisqartmalar, initsial qisqartmalar va aralash tipdagи qisqartmalar kabi uch asosiy guruhga bo‘linadi.

Umuman olganda, abbrevaturalar so‘zning yakuniy qismini qisqartirish

(masalan, “*sub*” “submarine” dan), so‘zning boshlang‘ich qismini qisqartirish (masalan, “*phone*” dan “telephone”) va so‘zning boshlanishi va yakuniy qismini qisqartirish kabi uch turga bo‘linadi. So‘zning boshlanishi va yakuniy qismini qisqartirish turi ingliz tilida kam uchraydi, “influenza” dan “*flu*” kabi.

Initsial qisqartmalar talaffuz qilish usuli bo‘yicha tasniflanadi va harfiy, tovushli va harfiy-tovushli qisqartmalarni o‘z ichiga oladi. Harfli qisqartmalar harflarning alifbo nomlari ketma-ketligi sifatida talaffuz qilinadi, masalan, “*ABM*” (antiballistic missile) so‘zidan olingan. Tovushli qisqartmalar yoki akronimlar oddiy so‘zlar kabi talaffuz qilinadi, masalan, “*SAC*” (Strategic Air Command). Harfiy-tovushli qisqartmalar, masalan, “*VTOL*” (vertical take off and landing), ikki xil talaffuz usulini birlashtiradi.

Aralash tipdagi qisqartmalar bir vaqtning o‘zida qisqartma va initsial qisqartmalarning elementlarini, qisman qisqartirilgan so‘zlardan shakllanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz, rus va o‘zbek qisqartmalarining struktural-semantik xususiyatlari**” deb nomlanib, bunda ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi bir bo‘g‘inli, murakkab bo‘g‘inli, bosh harfli qisqartmalarning tuzilishi va semantikasi masalalari yoritilgan. Bobda ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi qisqartmalar qiyosiy tahlil qilinib, qo‘llanilgan metodologiya asosida ushbu tillardagi qisqartmalarning struktural-semantik xususiyatlari ochiqlangan.

Tilshunoslikda qisqartma turlari o‘rtasidagi chegaralar turli tasniflash yondashuvlarining xilma-xilligi sababli hali ham munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu tadqiqotda A.N.Eldishev tomonidan taklif qilingan, qisqartmalarning asl birliklari va tuzilish xususiyatlarini hisobga olgan tasniflashga ustunlik berildi<sup>5</sup>.

Tadqiqotda uchta asosiy qisqartma turi ajratib ko‘rsatildi: bo‘g‘inli, murakkab bo‘g‘inli va bosh harfli qisqartmalar. Har bir tur o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular foydalanilgan tilga (ingliz, rus yoki o‘zbek) qarab farqlanadi.

Bo‘g‘inli qisqartmalar tasnifi nafaqat qisqartmalar, balki ularning asl birliklarini ham hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu tasniflash prototipning qaysi qismi saqlanib qolganini va til tizimida bo‘g‘inli qisqartma sifatida faoliyat ko‘rsatayotganini aniqlashga qaratilgan.

“Bo‘g‘inli qisqartmalar so‘zning qaysi qismi qisqartirilishiga qarab to‘rt turga bo‘linadi:

1. Bo‘g‘inli qisqartmalar, unda so‘zning bosh qismi saqlanib, oxirgi qismi qisqaradi (apokopa): masalan, *lab* = laboratory; *cap* = captain.

2. Bo‘g‘inli qisqartmalar, unda so‘zning oxirgi qismi saqlanib, bosh qismi qisqaradi (aferaza): masalan, *phone* = telephone; *chute* = parachute.

3. Bo‘g‘inli qisqartmalar, unda so‘zning o‘rta qismi saqlanib, bosh va oxirgi qismlari qisqaradi (chekka qisqartmalar): masalan, *frig* = refrigerator; *flu* = influenza.

4. Bo‘g‘inli qisqartmalar, unda so‘zlarning bosh va oxirgi qismlaridagi bo‘g‘inlar saqlanadi: masalan, *acty* = activity; *ego* = cargo; *ops* = operator”<sup>6</sup>.

Murakkab bo‘g‘inli qisqartmalardan farqli o‘laroq, bo‘g‘inli qisqartmalar

<sup>5</sup> Елдышев А.Н. Строение и мотивированность сокращённых слов (к проблеме взаимодействия формально-содержательных признаков в слове): Автореф. дис. канд. филол. наук. –М., 1984. – 14 с.

<sup>6</sup> Kocharyan Ю.Г. Аббревиатура в английской военной лексике. Канд. дис. –М.: 2007. – 121-135c.

odatda bitta mazmunli so‘z (ko‘pincha ot) asosida hosil qilinadi, murakkab bo‘g‘inli qisqartmalar esa so‘z birikmasi asosida shakllanadi. Ularni yaratish jarayoni boshlang‘ich so‘z birikmasini tashkil etuvchi har bir (yoki ko‘pchilik) so‘zning qisqartirilishi va keyin hosil bo‘lgan qismlarning bir so‘zga birikishi orqali amalga oshiriladi.

A.N.Eldishevga ko‘ra, “murakkab bo‘g‘inli qisqartmalar uch turga bo‘linadi:

1) Haqiqiy murakkab bo‘g‘inli qisqartmalar, bu qisqartmalar tarkibiga boshlang‘ich birliklarning bosh bo‘g‘ini yoki bo‘g‘inlari kiradi. Masalan: (*syncrom* = synchronous communication – «синхронная связь», “sinxron aloqa”; *navsat* = navigational satellite – «навигационный спутник», “navigatsiya sun’iy yo‘ldosh”; *Mindef* = Ministry of Defence – «Министерство обороны» (Великобритания), “Mudofaa vazirligi (Buyuk Britaniya)”<sup>7</sup>.

2) Birlashtirish, bularning o‘ziga xos xususiyati shundaki, qisqartma tarkibiga so‘zning oxirgi qismi kiradi.

Tadqiqot materialida qisqartmalar leksikasining o‘ziga xos va turli xil qatlamlari mavjud bo‘lib, ularning komponentlari o‘ziga xos shakli va so‘z tarkibiga kiritilishi tufayli yuqori darajada mustahkamlangan. L.Soudek birlashtirishlarni to‘rt sinfga ajratadi:

1. A sinf: Zanjirli birlashtirishlar. Birinchi va ikkinchi komponentlar o‘rtasida birlashish zonasida ustma-ust kelish yo‘q: happenident (happen + accident); pramateur (professional + amateur);

2. B sinf: Ustma-ust keladigan birlashtirishlar. Ikkala komponent ham birlashishda umumiy elementlarni bo‘lishadi (bunday birlashtirishlarni ustma-ust kelishlar deb ataymiz): bedventure (bed + adventure); animule (animal + mule);

3. C sinf: Kiritilgan birlashtirishlar. Bir so‘z boshqa so‘zning tarkibiga joylashtiriladi: anticipatering (anticipating + pater); askillity (ability + skill); destarture (departure + start); enforcement (enforcement + force);

4. D sinf: Grafik birlashtirishlar. So‘zning fonetik shakli o‘zgarmaydi va faqat grafik ko‘rinishi orqali ichiga joylashtirilgan boshqa so‘z aniqlanadi: buy-centenial (buy + bicentennial); sellebration (sell + celebration); boystorous (boy + boisterous).

3) Murakkab qisqartirilgan so‘zlar, bu qisqartmalar tarkibiga bo‘g‘in bilan bir qatorda to‘liq shakldagi so‘z yoki so‘zning ildiz morfemasi ham kiradi (masalan, popmusic = popular music)”<sup>8</sup>.

L.Soudikning tasnifi birlashtirishlarning barcha struktur turlarini qamrab oladi.

Bosh harfli qisqartmalarga, A.N.Eldishevga ko‘ra, bir nechta so‘zdan iborat bo‘lgan iboralarning qisqarishi natijasida saqlanib qolgan bosh harflar yoki bosh harfli qisqartmalar kiradi. Bosh harflar nafaqat bir-biri bilan, balki qisqartirilgan bo‘g‘inlar yoki to‘liq so‘zlar bilan ham birlashishi mumkinligi sababli, ushbu bo‘limda nafaqat bosh harfli qisqartmalarni, balki bosh harfli-bo‘g‘inli va bosh harfli-bo‘lakli (qisman qisqartirilgan) qisqartmalarni ham ko‘rib chiqamiz.

<sup>7</sup> Елдышев А.Н. Строение и мотивированность сокращённых слов (к проблеме взаимодействия формально-содержательных признаков в слове): Автореф. дис. канд. филол. наук. –М., 1984. –14 с.

<sup>8</sup> Soudek L. Structure of Substandard Words in British and American English. –Bratislava, 1967. – 464-465 p.

Bosh harfli qisqartmalar harfiy va tovushli qisqartmalarga bo‘linadi.

“Harfiy bosh harfli qisqartmalar alifbodagi harflar ketma-ketligiga asoslanib talaffuz qilinadi. Ba’zan harflar nuqtalar bilan ajratiladi. Masalan:

*N.B. [en'bi:]* = North Britain – “Shimoliy Britaniya”<sup>9</sup>.

Abbreviaturalarning semantikasi ko‘pincha ularning tilida ishlatalishi davomida o‘zgarishi aniqlangan, bu esa metaforik, metonimik siljishlarga yoki yangi konnotatsiyalarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Masalan, bo‘g‘inli abbreviaturalarning ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi mumkinligi, ularning o‘z semantik tuzilishining rivojlanishidan dalolat beradi.

Abbreviaturalarning qo‘llanilish kontekstiga qarab, ular turli funksiyalarni bajarishi mumkin – murakkab nomlarni soddalashtirishdan tortib, maxsus konnotatsiyalarni yetkazishga qadar. Shu ma’noda abbreviaturalar to‘laqonli leksik birliklar sifatida qaraladi, ular qisqartirilgan shakliga qaramay, tilni yangi ma’nolar bilan boyitishi mumkin.

Abbreviaturalarning stilistik bo‘yoqlari muhokama qilinib, ular stilistik variantlar sifatida paydo bo‘lishi mumkinligi va ularning qo‘llanilishi og‘zaki til yoki maxsus jargonlar bilan cheklanishi aniqlangan.

Tadqiqotda so‘zlarni qisqartirishning bir necha modellari aniqlangan bo‘lib, ular asl so‘zning saqlanib qolgan qismlarining chiziqli uzayishiga qarab farqlanadi, bu esa bir yoki bir necha bo‘g‘inlardan iborat abbreviaturalarni yaratishga imkon beradi.

Uch tildagi abbreviaturalarning taqqoslanishi, asosiy abbreviatsiya jarayonlari o‘xshash bo‘lishiga qaramay, har bir tilda o‘ziga xos xususiyatlar borligini ko‘rsatdi. Masalan, o‘zbek tilidagi abbreviaturalarning tuzilishi va semantikasi ko‘pincha kontekstga bog‘liq bo‘ladi, ingliz tilida esa akronimlar va teleskopik tuzilmalar keng tarqagan. Shuningdek, bu farqlar nafaqat har bir tilning tuzilish xususiyatlari, balki abbreviaturalarning shakllanishi va qo‘llanilishiga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy omillar bilan ham bog‘liq. Bu abbreviatsiyani o‘rganishda madaniy-til kontekstlarini hisobga olishning muhimligini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, bu bo‘lim abbreviaturalarning o‘rganilishida struktura va semantik jihatlarni hisobga olishning, shuningdek, ularning evolyutsiyasi va til ichidagi rolini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

Uchinchi bob **“Inglizcha harbiy qisqartmalarining rus va o‘zbek tillari terminologik tizimida qo‘llanilishi”** deb nomlanib, bunda ingliz, rus va o‘zbek tillarida abbreviaturalarning shakllanishi va faoliyat yuritishi, harbiy qisqartmalarini rasshifirovka qilishning asosiy usullari hamda ingliz harbiy qisqartmalarini rus va o‘zbek tillarida tarjima qilish masalalari yoritilgan.

Zamonaviy globallashuv davrida abbreviaturalarning turli sohalarda muloqotni osonlashtirishi va axborotni yetkazishni soddalashtirishi ma’lum. Ular ilmiy-texnik matnlardan tortib kundalik nutqqacha hamma joyda qo‘llaniladi. Biroq ularning shakllanishi va qo‘llanilishi xususiyatlari turli tillarda, xususan, turli tizimli tillarda sezilarli darajada farq qilishi kuzatiladi.

Ingliz tili abbreviaturalari uzoq tarixga ega bo‘lib, yozma va og‘zaki nutqda

<sup>9</sup> Коcharян Ю.Г. Аббревиатура в английской военной лексике. Канд. дис. – М.: 2007. – 138с.


keng qo'llaniladi. Ingliz tili xalqaro aloqa vositasi sifatida leksik qisqartmalar sohasida ko'pincha tendensiyalarni belgilab beradi. Rus tili esa o'ziga xos abbreviatura yaratish an'analariga ega bo'lib, ularning turli tarixiy va madaniy omillar ta'sirida shakllangan. O'zbek tili esa XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga duch kelgan bo'lib, abbreviatsiya, jumladan, harbiy abbreviaturalar sohasida ilmiy-amaliy natijalarga erishdi.

Inglizcha harbiy qisqartmalarining rus va o'zbek tillaridagi terminologik tizimda qo'llanilishi va tarjima qilinishi xususiyatlarini aniqlash maqsadida kontrastiv tahlil o'tkazildi, bu tahlil ingliz, o'zbek va rus abbreviaturalarning solishtirma-statistik xarakteristikasi asosida amalga oshirildi. Lug'atlar materiallari asosida o'tkazilgan solishtirma-statistik tahlil natijasida, har bir lug'atning umumiy hajmi 100% sifatida belgilangan va abbreviaturalarning qo'llanilish foiz nisbati aniqlangan (1.1-jadval dissertatsiya 148-bet).

Ingliz tilidagi materiallarida harbiy mutaxassislar va aviatsiya hamda harbiy aloqa kabi tor sohalarga mo'ljallangan lug'atlar yuqori foizda abbreviaturalarga egaligi kuzatiladi. Rus tilidagi harbiy mutaxassislar va tor sohalarga mo'ljallangan qisqartmalar va abbreviaturalarga bag'ishlangan lug'atlar yuqori foizda abbreviaturalarga ega.

O'zbek tili materiallarida abbreviaturalarning qo'llanilishi lug'at turiga va uning maqsadiga qarab sezilarli darajada farq qilish kuzatiladi.

Solishtirma-statistik ma'lumotlar asosida ingliz, rus va o'zbek manbalarida abbreviaturalarning o'rtacha paydo bo'lish foizi hisoblab chiqilgan va ma'lumotlar diagrammada aks ettirilgan.



**1-rasm. Turli manbalardagi abbreviaturalar hajmi**

Diagramma ingliz va rus manbalarining harbiy abbreviaturalar tadqiqotidagi ustunligini yaqqol ko'rsatadi, o'zbek tilidagi materiallar esa ancha kichik ulushni egallaydi. Bu ilmiy kommunikatsiyadagi global tendensiyalarni va mahalliy tadqiqotlarning o'ziga xosligini aks ettirishi mumkin.

Shuningdek, o'tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, harbiy sohada eng ko'p

ishlatiladigan abbreviaturalar tanlab olinib, ularning o‘zbek va rus tillariga tarjimasi bilan lug‘at tuzildi (dissertatsiya ilovasi (1.2-jadval)).

Qisqartmalarni rasshifrovka qilish muhim hisoblanadi. Bunda *kontekstni tahlil qilishda* grafik qisqartmalar “bog‘langan” bo‘lib, aniq bir joyda raqamli o‘lchamlar, shaxs ismlari, geografik nomlar va hokazolar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Grafik qisqartma «г.» turli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin – «город» (shahar), «год» (yil), «гора» (tug‘), «господин» (janob), «грамм» (gramm, odatda nuqtasiz ishlatiladi – «г»), lekin qisqartmaning ma’no jihatidan to‘g‘ri variantini, boshqa tarkibiy qismning xarakteri va qisqartmaning bu birikmada joylashgan o‘rnini hisobga olishni taqozo etadi. г. Москва, г. Эльбрус, г. Браун, 1972 г., 200 г. shuningdek, Dr. = Doctor – “доктор”, yoki Co. = colonel – “полковник” kabi qisqartmalar faqat shaxs ismlaridan oldin qo‘llaniladi.

Qisqartmalarni rasshifrovka qilish lug‘atlar va boshqa ma’lumotnomaga materiallaridan foydalangan holda ma’nosini ochish zarur bo‘ladi. “Fransuz tili qisqartmalari lug‘atida”<sup>10</sup> M, m bosh harflar bilan ifodalangan qisqartma uchun 80 dan ortiq ma’nolar keltirilgan. Ingliz tilidagi harbiy matnlarda M, m qisqartmasi “Chet el harbiy qisqartmalar lug‘ati”ga<sup>11</sup> ko‘ra 70 dan ortiq ma’noga ega bo‘lishi mumkin, “Aviatsiya va raketa-kosmik texnikasi bo‘yicha Inglizcha-Amerikacha qisqartmalari lug‘ati”da<sup>12</sup> esa bu qisqartma uchun 20 dan ortiq ma’nolar keltirilgan. Bunday hollarda kerakli ma’noni tanlash va tarjima qilish kontekstni tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Masalan, kontekst orqali tarjimon “ZAP” qisqartmasi samolyot bortida joylashgan qandaydir raketani anglatishini aniqlashi mumkin. U ingliz tilidagi bir tilli qisqartmalar lug‘atiga murojaat qilib, faqat “Zero Antiaircraft Potential” kengaytmasini topadi, lekin hech qanday izoh keltirilmagan. Ochilmaning so‘zmaso‘z tarjimasi (“nolga teng samolyotga qarshi salohiyat”) tarjimonni chalg‘itishi mumkin. Aslida esa, “ZAP” dushmanning zenit vositalari salohiyatini nolga tushirish uchun mo‘ljallangan aviatsiya raketalarining bir variantini bildiradi.

Murakkab tuzilishga ega qisqartmalar, ayniqsa, ko‘p komponentli qisqartmalar kengaytirilganda qisqartmalar tuzilishini tahlil qilish usuli samarali hisoblanadi. Amerika harbiy hujjatlarida grafik qisqartmalar va qisqartirilmagan so‘zlar zanjiri ko‘p uchraydi, bu umuman olganda, murakkab terminlarni yozish usulidir, masalan: “*Ord Veh and Arty Park Co.*” Bunday “zanjirlar” odatda qisqartmalar lug‘atlarida keltirilmaydi. Ular elementma-element ochiladi: *Ord* = Ordnance, *Veh* = Vehicle, *Arty* = Artillery, *Co* = Company. Shunday qilib, bu “zanjir”ning to‘liq ochilgan shakli “ordnance vehicle and artillery park company” bo‘lib, bu “artilleriya parki xizmat ko‘rsatish vazvodi” degan ma’noni anglatadi.

Analogiyalardan foydalanish qisqartmalar tuzilishini tahlil qilish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, faqat yordamchi usul sifatida qo‘llaniladi. *HQ* (Headquarters – shtab) yoki *CO* (Company – rota) qisqartmalari ma’lum bo‘lsa, *BN HQ* – Battalion Headquarters, ya’ni “batalyon shtabi” degan ma’noni anglatishini taxmin qilish

<sup>10</sup> Словарь сокращений французского языка. Сост. Э. Г. Баранчев и др. М., 1968. – 500 с.

<sup>11</sup> Словарь иностранных военных сокращений. Сост. В. В. Борисов и др. М., 1961. – 450 с.

<sup>12</sup> Словарь англо-американских сокращений по авиационной и ракетно-космической технике. Сост. А. М. Мурашкевич. М., 1969. – 437 с.

mumkin. Xuddi shuningdek, agar *R&D* (Research and Development – ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstrukturlik ishlari) mavjud bo‘lsa, *T&D* – Testing and Development, ya’ni “sinov va ishlab chiqish” degan ma’noni anglatishi mumkin.

Ingliz, rus va o‘zbek tillarida harbiy qisqartmalarni kengaytirishning asosiy usullari harbiy operatsiyalar, taktika va strategiya bilan bog‘liq ma’lumotlarni tushunish va tahlil qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Qisqartmalarni ochish murakkab matnlar, hujjatlar va harbiy sohada ko‘p qo‘llaniladigan muloqot maqsadlarida qo‘llaniladi.

Xorijiy qisqartmalarni rus va o‘zbek tillariga o‘tkazishning asosiy usullari quyidagilar: 1) xorijiy qisqartmani rus yoki o‘zbek qisqartmasi ekvivalenti yordamida yetkazish; 2) xorijiy qisqartmani o‘zlashtirish (lotin yozushi shaklini saqlagan holda); 3) xorijiy qisqartmaning harfiy tarkibini rus yoki o‘zbek harflari bilan o‘tkazish (transliteratsiya); 4) xorijiy qisqartmaning fonetik shaklini rus yoki o‘zbek harflari bilan o‘tkazish (transkripsiya); 5) ta’rifiy tarjima; 6) yangi rus yoki o‘zbek qisqartmasini yaratish.

Xorijiy qisqartmani rus yoki o‘zbek qisqartmasi ekvivalenti yordamida yetkazish inglizcha *m* (meter), fransuzcha *M* (metre), nemischa *m* (Meter) qisqartmalari aniq ruscha *m* qisqartmasiga mos keladi, shuningdek, o‘zbek tilida ham *m* qisqartmasi turli fizik kattaliklar, o‘lchov birliklarini ifodalovchi qisqartmalarni tarjima qilishda qo‘llaniladi.

Inglizcha *WS* (weapon system) – “qurol tizimi”, rus yoki o‘zbek matnida lotin harflari bilan berilishi mumkin. Ushbu usul nisbatan kam qo‘llaniladi, asosan, shartli belgilar tizimiga kiruvchi qisqartmalarni, masalan, *WS-610A* nomenklatura belgisi kabi qisqartmalarni o‘tkazishda ishlatiladi. Bu usul, shuningdek, xorijiy qisqartma tuzilishini ko‘rsatish, uni xorijiy tildagi boshqa leksik birliklar bilan solishtirish, sharh berish va hokazolarni talab qiladigan hollarda qo‘llaniladi.

